
JAHOLATGA QARSHI FAQAT MA'RIFAT BILAN KURASHAMIZ

Din ishlari bo'yicha qo'mitaning tuman bosh mutaxassisi hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi tomondan Toshloq tuman Barkamol avlod bolalar markazi xodimlari ishtirokida "Jaholatga qarshi ma'rifat" mavzusida "Ma'rifat soati" o'tkazildi.

Unda ma'naviy qashshoq insonning jaholat komiga tushishi osonligi, biz bugungi kunda teran fikrlamog'imiz kerakligi haqida aytilib, Fikrga qarshi – fikr, g'oyaga qarshi – g'oya, jaholatga qarshi – ma'rifat orqali kurash g'oyasi shiori ostida barchamiz bahamjixat bo'lib, milliy g'oya va mafkurani ongimizga yanada chuqurroq singdirishimiz va mafkuraviy immunitetni shakllantirishimiz lozimligi to'grisida fikr yuritildi.

2023-08-08 13:20:06